

Date: 13th July-2026

ISTILMAYDIGAN ISSIQXONALARDA POMIDORNING KOKTEYL TIPIDAGI DURAGAY NAMUNALARINING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kamalova Nargiza Maxammadovna

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston xududida isitilmaydigan issiqxonalar sharoitida yetishtiriladigan pomidorning kokteyl tipidagi duragay namunalarining morfologik xususiyatlariga tavsif berilgan. O'simlikning bo'yi, barglanish darajasi, gul shingillarining shakllanishi va meva shakli kabi muhim morfologik belgilar yoritilgan. Ushbu ko'rsatkichlar duragaylarning biologik salohiyatini baholash hamda yuqori hosildor duragaylarni tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: pomidor, kokteyl tipi, duragay, morfologik xususiyatlar, isitilmaydigan issiqxona, hosildorlik.

Аннотация. В данной статье приводится описание морфологических особенностей гибридных образцов коктейльного томата, выращиваемых в условиях неотапливаемых теплиц на территории Узбекистана. Освещены такие важные морфологические признаки, как высота растения, степень облиственности, формирование цветочных кистей и окраска плодов. Данные показатели имеют важное значение для оценки биологического потенциала гибридов и отбора высокоурожайных образцов.

Ключевые слова: томат, коктейльный тип, гибрид, морфологические особенности, неотапливаемая теплица, урожайность.

Abstract. This article describes the morphological characteristics of cocktail tomato hybrid samples grown under unheated greenhouse conditions in Uzbekistan. Key morphological traits such as plant height, leafiness, flower cluster formation and fruit shape are highlighted. These indicators are crucial for evaluating the biological potential of hybrids and selecting high-yielding varieties.

Keywords: tomato, cocktail type, hybrid, morphological characteristics, unheated greenhouse, yield.

O'zbekistonning taraqqiyoti hamda aholi sonining tobora ortib borishi oziq-ovqat, xususan, sabzavot ekinlarining turi va sifatiga bo'lgan talabni oshishiga sabab bo'lib kelmoqda. Bu borada himoyalangan yer sabzavotchiligi qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan bo'lib, aholini yilning nomavsumiy davrida yangi vitaminlarga boy mahsulotlar bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda ayni vaqtda mavjud issiqxonalarda asosan pomidor, bodring va boshqa sabzavot ekinlari yetishtirilmoqda. Pomidor sabzavot ekinlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Pomidorning har bir navi yoki duragayining mevalari o'ziga xos shakli, hajmi, zichligi, rangi, yorqinligi, kimyoviy tarkibi va xushbo'y ta'miga ega. Bu xususiyatlarning aksariyati duragay va nav xususiyatlariga, ularning yetishtirish texnologiyasiga qarab farq qilishi mumkin. O'zbekistonning Andijon viloyatida pomidorni istilmaydigan issiqxonalar



Date: 13th July-2026

sharoitida yetishtirish uchun, bugungi kunda eng ko'p talab qilinayotgan kokteyl pomidorlarni viloyat sharoitida keng yetishtirishni yo'lga qo'yish uchun maqbul duragaylarni tanlash, ularni yetishtirish texnologiyasining muhim elementlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida "...oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat dasturini ishlab chiqish va joriy etish" muhim vazifalardan biri sifatida ta'kidlab o'tilgan. Biroq, respublika issiqxona sharoitida pomidorning "kokteyl" navlarini tanlash hamda yetishtirishning texnologik elementlarini ishlab chiqish dolzarb muammo hisoblanadi. Shu sababli, issiqxonalarda qishki-bahorgi aylanishda pomidorni kokteyl tipidagi duragay namunalari yetishtirishning texnologik elementlarini ishlab chiqishni tadqiq qilishni taqozo qilmoqda.

Pomidorning kokteyl tipidagi duragaylari respublikamizda yaqin yillardan buyon yetishtirila boshlandi va ular respublikamiz sabzavotchiligi uchun nisbatan yangi yo'nalish hisoblanadi. Har qanday tipdagi pomidorlar singari kokteyl tipidagi pomidorlar uchun ham barglarining rivojlanishi muhim fiziologik ko'rsatkich hisoblanadi. Negaki, barglar asosiy fotosintez a'zolari bo'lib, ularda fotosintez natijasida organik moddalar hosil bo'ladi. Ushbu moddalar o'simlikning mahsuldorligini ta'minlaydi. Bizning tajribalarimizda 7 ta chinbargli, plastik kassetalarda yetishtirilgan yopiq ildizli ko'chatlardan foydalanildi.

Ko'chatlar mart oyining birinchi sanasida istilmaydigan plyonkali issiqxonalarga ekildi va navbatdagi barg chiqishidan boshlab o'rganildi. Kuzatuvlarimiz navbatdagi 5 ta barggacha davom ettirildi, ya'ni 7 bargdan 12-barggacha. Tajribada kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, barglarning shakllanish tezligi qo'llanilgan kokteyl tipidagi pomidor duragayining tezpisharligi bilan bevosita bog'liq bo'ldi. Bunda barglarning eng tez shakllanib borishi bilan standart Umid F1 duragayiga nisbatan Annasan F1, Annamey F1 va Annaisa F1 duragaylari alohida ajralib turdi. Ushbu duragaylarda har bir navbatdagi barglarning shakllanishi uchun 3-4 kun talab etildi. Barglarning sekin shakllanib borishi bilan Moda F1 duragayi alohida ajralib turdi.

1-jadval

Pomidorning kokteyl tipidagi indeterminant duragaylarida barglarning shakllanishi dinamikasi, 2023-2025 yillar

Tajriba varianti	Barglarning shakllanishi, kun					1-shingilning shakllanishi, barg tartibidan so'ng
	8-barg	9-barg	10-barg	11-barg	12-barg	
Umid F1 (st)	5	4	5	3	4	7
Briozo F1	4	3	4	3	3	7
Kampari F1	5	4	5	3	4	8
Annamey F1	4	3	4	3	3	6
Tatami F1	4	3	4	3	4	6
Moda F1	5	4	5	4	6	8




Date: 13th July-2026

Annaisa F1	4	3	4	3	3	6
Metyu F1	4	3	4	3	4	6
Annaoranj F1	4	3	4	3	3	7
Annasan F1	4	3	4	3	3	5
Forte Roze F1	4	3	4	3	4	7

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, pomidorning qolgan kokteyl tipidagi indeterminant duragaylarida har bir navbatdagi barglarning shakllanishi uchun 3-5 kun talab etildi va ular yuqorida ta'kidlangan duragaylar orasida oraliq ko'rsatkichlari bilan ajralib turdi. Birinchi meva shingilining eng kech paydo bo'lishi standart Umid F1 duragayida 8-bargdan keyin kuzatildi. Standart Umid F1 duragayiga keyin esa Kampari F1 va Moda F1 duragaylarida kuzatildi. Ushbu duragaylarda birinchi meva shingilining shakllanishi 8-bargdan keyin amalga oshdi. Qolgan kokteyl tipidagi pomidor duragaylarida birinchi meva shingilining paydo bo'lishi 6-7 barglardan so'ng qayd etildi va ular ushbu ko'rsatkichi bilan yuqorida ta'kidlangan duragaylar orasida oraliq ko'rsatkichlarga ega bo'ldi.

Kokteyl tipidagi pomidor duragaylarining gullash muddati ham o'zaro farqlandi. Bunda eng erta gullashi bilan pomidorning Annasan F1, Annamey F1 va Annaisa F1 duragaylari alohida ajralib turdi. Ushbu duragaylarda birinchi meva shingilidagi dastlabki gullar urug' unib chiqqandan keyingi 31 – 33-kunlari aniqlandi.



1-rasm. Pomidorning kokteyl tipidagi indeterminant duragaylarida birinchi meva shingilining gullay boshlashi va davomiyligi, kun (2023-2025 yillar)

Yuqoridagi rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, birinchi meva shingilining eng kech gullay boshlashi bilan Kampari F1 va Moda F1 duragaylari ajralib turdi. Ularda birinchi meva shingilining gullay boshlashi 49 – 50-kunda qayd etildi. Qolgan pomidor duragaylari birinchi shingilining gullay boshlash muddati bo'yicha ushbu duragaylar

Date: 13th July-2026

o'rtasida oraliq ifodaga ega bo'ldi va ularning gullay boshlashi 45 – 47-kunlarga to'g'ri keldi.

XULOSA

Isitilmaydigan issiqxonalarda pomidor yetishtirishda to'g'ri duragay tanlash hosildorlik va mahsulot sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kokteyl tipidagi pomidorlar mayda va shirinligi sababli bozorda katta talabga ega bo'lib, ularni sotish osonroq.

Yuqorida tavsiya etilgan duragaylar iqlim sharoitlariga moslashgan va kasalliklarga chidamli bo'lib, fermerlar uchun samarali variant hisoblanadi. Pomidorning o'rganilgan kokteyl tipidagi Annasan F1, Annamey F1 va Annaisa F1 duragaylari har bir navbatdagi barglar eng tez–3-4 kunda shakllandi. Barglarning sekin har 4-5, hatto 6 kunda shakllanib borishi Moda F1 duragayida kuzatildi. Qolgan duragaylarida har bir navbatdagi barglarning shakllanishi uchun 3-5 kun talab etildi.

Birinchi meva shingildasining eng tez–5-bargdan so'ng shakllanishi bilan Annasan F1 duragayi ajralib turdi. Birinchi meva shingildasining eng kech 8-bargdan keyin paydo bo'lishi Kampari F1 va Moda F1 duragaylarida kuzatildi. Qolgan duragaylarida birinchi meva shingildasi 6-7 barglardan so'ng shakllanganligi qayd etildi. Bir shingilidagi birinchi guldand oxirgisigacha bo'lgan gullash davomiyligi bo'yicha ham pomidor duragaylari o'zaro farqlandi.

Bunda gullash davomiyligining eng qisqaligi bilan Annasan F1, Annamey F1 va Annaisa F1 (9-10 kun), uzoq davom etishi bilan Kampari F1 va Moda F1 (13-14 kun) ajralib turdi. Qolgan pomidor duragaylarida birinchi shingilining to'liq gullab bo'lish muddati davomiyligi 11-12 kun oralig'ida bo'ldi. Pomidorning kokteyl tipi duragay namunalarini isitilmaydigan issiqxonalarda yetishtirish uchun turli xil substratlardan foydalanish kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. – “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishni beshta ustivor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi davlat dasturi” PF-4947, Toshkent 2017 yil 7 fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5883-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 noyabrdagi “Issiqxona komplekslarini rivojlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4020-sonli qarori.
4. T.E.Ostonaqulov, V.I.Zuiyev, O.Q.Qodirxo'jayev “Sabzavotchilik”. Toshkent 2009.
5. Yusupov.B. “Issiqxona pomidori navlarini tanlash va agrotehnika tadbirlari.” O'zbekiston Agrar Tadqiqot Markazi. 2023
6. www.fao.org-BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti rasmiy sayti.
7. Axmedov P.M. Культура томата в промышленных теплицах Дагестана.// Горное сельское хозяйство. – 2018. № 3. –С. 90-96

